

ODIL YOQUBOVNING "MUZQAYMOQ" HIKOYASIDA  
BOLA OBRAZI VA HAMNAFAS DAVR RUHI

*Odilova Raxima*

*Ilmiy rahbar: T.Matyoqubova*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*

*O'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada beg'ubor bolalik davrini to'kis baxtli o'tkaza olmagan, zamonning tahlikali siyosatini hali beg'ubor kuzatuvchisi va bir paytning o'zida bolalikdagi "qahramon" ligidan faxrlanganiga uyalgan bolaning ulg'aygach, ushbu voqealikka munosabatini bildirayotgan taniqli yozuvchi Odil Yoqubov qalamiga mansub bo'lgan "Muzqaymoq" hikoyasidagi bolaning ichki olami haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, xalqning ijtimoiy holati, sho'ro siyosatiga ko'ra targ'ibot va tashviqot ishlarining aholiga ta'siri natijalari, shaxsga sig'inish oqibatlar va Stalin qatag'onchilik davri haqidagi ma'lumotlarni ham shu kichik hikoyaga jamlab yetkazib beriladi. Qisqagina hikoyada g'oyaviy aqidalarga ishonib kelgan va ayni paytda tuzumdan norozi nufusning maishatidan darak beruvchi, shuningdek, insonlarni siyosiy o'yin qurbonlariga aylantirgan shaxsga sig'inishning, xalqning ishonchi toptalishi, sadoqatining qadrlanmasligi "mukofot"ini ko'rishimiz mumkin. Zamon zayli bilan qadimdan qo'shnichilik, qarindoshchilik, mehmondo'stlik kabi xalqimizning o'zaro aloqalarini uzilishining ildizlarini ochib beradi. 10 yashar bolaning idroki va ko'nglida konfliktlar yuzaga keltirgan tasvirlarni yaqqol guvohi bo'lamiz.

**Kalit so'zlar:** Muzqaymoq, mehmonlar, maktab, Stalin, NKVD.

Adabiyot mundarijasini kuzatadigan bo'lsak, unda jamiyatning turli xil qatlamlarini o'ziga jalb qiluvchi adabiyotlarni uchratamiz. Bu qatlamlar ham turli bo'lib, unda odatda bola obrazi tasvirli asarlar yorqin, rang- barang va quvnoqroq xarakterli tarzda yoritiladi. Zero, bolalik xususiyati shunday beg'ubor va jiddiy voqealarga beg'amroq qaraydigan xilqat hisoblanadi. Yozuvchi Toxir Malik ta'rificha : "Qilayotgan ishingizga o'zingiz to'g'ri baho bera olganingizdan boshlab bolaligingiz bilan vidolashasiz. Ha, ha, aynan vidolashasiz. Bolalik sizning xotirangizga ko'chadi. Vaqti kelib, bu xotira vijdon azobiga soladi, vaqti kelib nimalarnidir qo'msashga majbur qiladi".<sup>1</sup>

O'zbek bolalar adabiyotida ijod qilgan ko'plab yozuvchilarning asarlaridan namunalar keltirish mumkin. Shuningdek, ularda kichik qahramonlar turlicha ijtimoiy

<sup>1</sup> Toxir Malik – "Alvido, bolalik" qissasidan parcha. (" Kecha qayerda edik yoxud har ehtimolga qarshi topilgan bahonalar haqida hikoya" qismidan olindi).

sharoitning ishtirokchisi yoki aynan bir xil vaziyatning farq qiluvchi namoyandasi bo'ladilar. Soddagina qilib aytganda, ma'lum bir voqea-hodisalar har kimga har xil ta'sir o'tkazadi, ya'ni bolalar adabiyotida real holatda ularning barchasi "bola" va ularning hammasi ayni bir zamonda yashaydi-yu, boshqa boshqa manzarani tasavvur etadilar va xarakter jihatdan farqlanadilar.

O'zbek adabiyotida ilk bola obrazi bilan kirgan realistik hikoya adib Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasi bilan boshlanar ekan, G'afur G'ulomning samarali mehnatlari bilan bolalar obrazining xususiyatlari ham yanada kengaydi. Shuningdek, bu yo'nalishda ham qalam tebratgan istiqloq davri yozuvchisi sifatida o'rganiladigan yozuvchi Odil Yoqubovning "Muzqaymoq" hikoyasidagi 10 yashar bola atrofidagi mojarolar avtobiografik xususiyati bilan ajralib turadi. Hikoya janriga ko'ra, hayotning bir voqea tizimigina aks ettirilishi jihatdan voqelik muayyan tartibda voqeanavisning o'zi tomonidan hikoya qilinadi.

Ma'lumki, muallif hikoyada XX asr xalqimiz o'tmishidagi fojealar davrining o'z hayotidagi bir sahifasini qog'ozga tushirgan. U shunday boshlanadi: "O'sha oilamiz boshiga og'ir kulfat tushgan kuni, men, o'n yashar bola, nimadandir ko'nglim g'ash, uyimiz ro'parasidagi paxsa devorga chiqib go'yo otga minib o'tirardim". Bolaning ko'ngli g'ash, ammo "go'yo otga" minib o'tirardi. Ushbu kichik tasvirdan ko'rinadiki, devorni hali ot deb tasavvur etayotgan va shunchaki ko'ngli g'ash bola edi, sababi u ma'lum bir soatlardan keyin hayotida eslab afsuslanadigan hodisadan bexabar, bolalarcha sodda va beg'ubor boshlang'ich sinf o'quvchisi edi xolos. Shu bilan birga, bola tabiatiga xos tez o'zgaruvchanlik bilan uyiga kelgan otasining SAKUdan<sup>2</sup> kelgan mehmonlari tashrifi bilan tezda kayfiyatidagi bulutlar tarqab ketib, bolalarcha to'la shodlik bilan otasini chaqirib kelish uchun yugurgilab ketadi. Bolaning otasiga xabar berish uchun uydan ketayotgan va otasining ish joyiga yetib borishi oralig'idagi masofada qisqagina qilib, otasining qanday qilib xalq komissari amalidan quyiroq lavozimga tushirilgani haqida shunday xotirlaydi: "Otang so'fi bo'lgan, sen buni yashirgansan", - degan aybnoma bilan pastga surila- surila, yumalay- yumalay oxir pirovardida Turkiston tumani moliya bo'limiga mudir etib tayinlangan edilar". Bu jarayonda kuzatishimiz mumkin bo'lgan manzara nimalardan iborat bo'lgan?! Muhitning notinchligi, demokratik huquqlar haqida fikr ham bo'lishi mumkin emasligi, kattalarning bolalardek itoatkor va aldanishga moyilligi kabi sodda turmush tarzini ifoda etgan faol pozitsiyalarni sezmaslik mumkin edimi ?!

Hali bola paytida otasining qo'rquv va xavotirda yashaganini guvohi bo'lgan yosh yozuvchi o'zi kutmagan, lekin "barakali" ishlayotgan sho'ro siyosatining fojeasi yana bir o'zbek oilasida yuz berdi. "Men o'sha paytlar mamlakatimizda va hatto shahrimizda nima bo'layotganidan bexabar edim, albatta, shu bois oyimlar bilan

<sup>2</sup>SAKU yoki SAGU (Среднеазиатский государственный университет).  
Hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti (U vaqtlarda O'rta Osiyo davlat universiteti) deb atalgan.

opamlarning harbiylarni ko‘rishlari bilanoq faryod chekib, ichkariga otilishlarini sababini anglamadim. Ammo ular mudhish maqsad bilan kelganinini aql bilan bo‘lmasa-da, yurak bilan his etgandim”. Shu beparvoligi bilan kapitan ocholmagan shkaf tortmasini ochib berib, kapitandan maqtov eshitganiga xursand bo‘lgan obraz “bola” edi-da. Mustamlakachilik siyosatining yana bir tartib nizomiga ko‘ra, «SAKUchi mehmonlar» Turkistondan ketishdan avval NKVDga<sup>3</sup> borib ruxsat olishlari shart edi. Xo‘sh, nega yozuvchi bu ma‘lumotlarni kiritib o‘tdi? Bu mustamlakachilik nazoratini tutqunlik ekanini bilmagan bolaning tasviri va fuqarolarning qaramligini holatini ochiq oydin ko‘rsatib beradigan kichik voqea edi.

Siyosiy targ‘ibot – tashviqotlar mehnati evaziga bolalar yolg‘on aqida va g‘oyalar ta‘sirida tarbiya topdilar. Fyurer<sup>4</sup> Gitler<sup>5</sup> ta‘kidlaganidek: “Agar siz yolg‘onni yetarlicha uzoq, baland ovozda tez – tez gapirsangiz, odamlar bunga ishonishadi. Odamlarni yolg‘onga ishontirishning siri yolg‘onni qayta – qayta takrorlashdir. Shunchaki takror, takror va yana takror aytish”. Har kuni o‘tkaziladigan mitinglar, karnay-surnay va nog‘oralarning sadosi, o‘zining aldanganidan bexabar, lekin bundan mamnun tendoshlarining saf tortib yurishi bolaning havasini oshiradi. Bolaning ruhiy konfliktlari ortadi, hikoyada bular bir necha ko‘rinishlarda aks etadi. Xushsurat kapitanning maqtab turib Pavlik Morozovga o‘xshatganidan xursand bo‘lsa, opasiga qilgan soxta xushomadidan jaxli chiqadi. Otasi qamalishidan oldin uylariga bo‘zchining mokisidek qatnaydigan xushomadgo‘y qo‘shnisining «Qashqirdan tug‘ilgan qashqircha» deb haqoratlashidan anglab anglamay bo‘g‘zini ko‘z yoshi tutadi. Pushkin yubileyi munosabati bilan chiqarilgan daftardan «Doloy SSSR!» ya‘ni «Yo‘qolsin SSSR!» degan yozuvni topganiga quvonsa, hurmat taxtasidagi ro‘yxatda pionerlar orasidan o‘z nomini topolmasdan ranjiydi. Bu “qahramon” ligini aytganda, onasidan maqtov eshitmaganiga hafa bo‘ladi. U doim tevaragidagi voqealarni idrok qilolmas, faqatgina his qilolardi xolos. Onasi va opasining kechasi uhlamay talqon va yana allanimalar tayyorlab chiqishganini sababini o‘ylamas edi. Qamoqxona uchrashuvida ilk va so‘nggi bor otasini ko‘rayotganini ham bilmasdi. Otasining oxirgi jummalari uni juda oz muddatda ulg‘aytirgandek bo‘ldi yoki barcha kichik hodisalar go‘yoki shu vaziyatga zamin yaratgan edi.

Adib o‘zi hikoyada otasi va shayx deb e‘zozlangan bobosining holati va sho‘ro tuzumi haqida shunday ta‘svirlagan edi: “Ota - bola biri – shayx, biri – bolshevoy, qip - qizil sinfiy dushmanga aylanganlar”. Murakkab davr ziddiyatlari bu ikki avlod bilangina cheklanib qolmay, uchinchi avlod vakilini ham turtkilamay o‘tmagani hikoyada bayon etilgan.

Adibning ayoli Maryam Yoqubova esa intervyularidan birida shunday esga oladi

<sup>3</sup>NKVD – Народный комиссариат внутренних дел СССР  
(Ichki ishlar xalq komissarligi)

<sup>4</sup>Fyurer – dohiy. Fashistlar Germaniyasida Gitlerni shunday nom bilan atashgan

<sup>5</sup>Adolf Gitler – Milliy sotsialistik nemis ishchilar partiyasining yetakchisi.

:“ U har safar qo‘lyozmalarni mashinistkalarga tashlab yoki olib qaytganda, otasi: « balli», deb uni bir – ikkita muzqaymoqqa yetadigan pul bilan siylardilar. U esa muzqaymoqni qo‘shni bolalar bilan baham ko‘rish uchun ko‘chaga otilardi. Bazan qo‘shni bolalarining unga:

- Dadang qo‘lyozmasini olib bordingmi ? – deb hazillashganlari qulog‘imga chalinib qolardi ”<sup>6</sup> .

Balki qachonlardir otaning o‘z o‘g‘liga muzqaymoq olib berolmaganidan o‘ksingan qiyofasi bir umr xotirasiga muhrlangan yozuvchining iztiroblari uning hayoti davomida bu voqeaning yaxshiroq yakun topishini qayta – qayta tasavvur etgandir.

Har bir ijodkorning boshqalardan ajratib turadigan o‘z uslubi mavjud bo‘lib, Odil Yoqubovning o‘ziga xosligi haqida tanqidchi U.Normatov quydagi fikrni bildiradi: “Adabiyotshunoslikda biografik metod degan ilmiy maktab bor. Bu maktab tarafdorlari ijodkor asarlarida muallif biografiyasi, shaxsiyati bilan aloqador jihatlarni tadqiq etadi. Afsus, bu ilmiy maktab bizda hali to‘la to‘lis shakllangan emas Odil Yoqubov ijodi ayni shu muammoni tekshirish uchun g‘oyat boy material beradi ”.<sup>7</sup> Huddi shunday Odil Yoqubov ijodi jonliligi bilan doim o‘z kitobxonlarini topgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://kh-davron.uz/kutubxonamultimedia/maryam-yoqubova-xotiralar.html>
2. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xaritauzbek-nasri/odil-yoqubov-1926-2009/odil-yoqubov-muzqaymoq-hikoya>
3. <https://youtu.be/rNywCmO8-wl>
4. Umarali Normatov. Ijod sehri. “Sharq” nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent- 2007. 105- bet.
5. Wikipedia

---

<sup>6</sup> Maryam Yoqubova (Bu yerda Odil Yoqubovning o‘g‘li Iskandar Yoqubovning 13 yoshligidagi voqea haqida aytilgan). Xotiralar & Maryam Yoqubova “ Hamnafas ” teledasturida 19.10. 2021. Xurshid Davron kutubxonasi/ kh-davron.uz

20- oktabr-Atoqli yozuvchi Odil Yoqubov tavallud topgan kunning 95 yilligi

<sup>7</sup> Umarali Normatov. Ijod sehri. “Sharq” nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent- 2007. 105- bet.